

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13924017>

## SUV DIPLOMATIYADA XALQARO MINTAQAVIY ISHLAR VA ULARNING RIVOJI

**Ataullayev Fazliddin Fahriddin o'g'li**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Ijtimoiy gumanitar yo'nalishlarda xorijiy tillar kafedrası o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Suv diplomatiyasi va xalqaro mintaqaviy ishlar hamda ularning rivoji haqida so'z boradi. Aynan suv resurslarini oqilona boshqarishda turli mamlakatlar tajribasi taxlil qilinadi. Suvdan oqilona foydalanishning o'ziga xosliklari ochib beriladi.*

***Kalit so'zlar:**Suv, diplomatiya, resurs, tabiiy zahira. Mintaqa, inson omili, gidrosfera, qonun, farmoyish, chegara.*

Bugungi kunda dunyoda keskin ijtimoiy – siyosiy o'zgarishlar yuz berayotgan vaqtda tabiiy zahiralarni asrashga bo'lgan e'tibor muhim ahamiyat kasb etayotganligini ko'rishimiz mumkin. Iqlim o'zgarishi va aholi sonining ko'payishi kabi omillar ta'siri kuchaygan bir sharoitda Markaziy Osiyo mintaqasida suv diplomatiyasi tashqi siyosat va iqtisodiyotning muhim qismiga aylandi. Suv diplomatiyasining asosiy maqsadi global va mintaqaviy tizimlarga asoslangan adolatli, ko'p tomonlama suv boshqaruvi tizimlarini yaratish va davlatlarning suv resurslaridan teng foydalanishi uchun xalqaro sa'y-harakatlarni birlashtirishdir.

Barcha mamlakatlarning, shu jumladan Markaziy Osiyodagi besh mamlakatning konstitutsiyalarida iqtisodiyot va jamiyatning suvga bo'lgan talabini qondirish davlatning majburiyati ekanligi ta'kidlangan. Bu tushunarli, albatta, chunki suv oziq-ovqat mahsulotlari kabi insonning hayot faoliyatini ta'minlovchi asosiy

omildir. Shunday bo'lsa-da, mamlakatlarning suv resurslarini boshqarish masalalariga yondashuvlarida o'ziga xos farqlar mavjud. Suv resurslarini boshqarishning ayrim siyosiy jihatlari to'g'risida to'xtalib o'tamiz. Suv resurslarining shakllanishi, ularni muhofaza qilish va rivojlantirish, shuningdek suv resurslarining mamlakat miqyosidagi taqsimotini amalga oshirish, shubhasiz, davlat organlari tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalardir. Shu bilan birga, davlat yana bir qator suv resurslarini boshqarish bilan bog'liq boshqa asoslangan siyosiy funksiyalarni ham amalga oshirishi lozim. Suv resurslarini boshqarish bir necha ierarxik darajalarda amalga oshiriladi va bu darajalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- milliy daraja;
- viloyat, havzaviy yoki subhavzaviy daraja;
- tuman tizimi darajasi;
- suv iste'molchilari, suv iste'molchilari uyushmalari va suvdan foydalanuvchilar darajalari.

Suv resurslarini boshqarishdagi birinchi tamoyil ma'muriy-hududiy deb nomlanadi va u barcha mamlakatlarda ma'lum darajada mavjud. Mazkur tamoyilning asosiy kamchiligi havzalar chegaralarining ma'muriy chegaralarga mos kelmasligi bilan bog'liq. Mazkur tamoyil asosida havza darajasida suv resurslarini boshqarish hamda aniq rejalashtirish imkoniyatlari yo'q. Bu esa o'z navbatida suv resurslari taqsimoti notekis amalga oshirilishi va suv resurslari samarali boshqarilmasligiga, jumladan tashkiliy suv isroflarining oshib ketishiga olib keladi.

Havza darajasida suv resurslarini boshqarishning huquqiy asoslari mamlakatlarning asosiy suv qonunchiligida belgilab beriladi. Jumladan, Markaziy Osiyo mamlakatlarida suv qonunchiligi asosini Suv Kodekslari tashkil etadi. Har bir suv kodeksida u yoki bu darajada suv resurslarini integral boshqarish va havzaviy rejalashtirish imkoniyatlari ko'zda tutilgan.

Barcha mamlakatlarning, shu jumladan Markaziy Osiyodagi besh mamlakatning konstitutsiyalarida iqtisodiyot va jamiyatning suvga bo'lgan talabini qondirish davlatning majburiyati ekanligi ta'kidlangan. Bu tushunarli, albatta, chunki

suv oziqovqat mahsulotlari kabi insonning hayot faoliyatini ta'minlovchi asosiy omildir. Shunday bo'lsa-da, mamlakatlarning suv resurslarini boshqarish masalalariga yondashuvlarida o'ziga xos farqlar mavjud. Suv resurslarini boshqarishning ayrim siyosiy jihatlari to'g'risida to'xtalib o'tamiz. Suv resurslarining shakllanishi, ularni muhofaza qilish va rivojlantirish, shuningdek suv resurslarining mamlakat miqyosidagi taqsimotini amalga oshirish, shubhasiz, davlat organlari tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalardir. Shu bilan birga, davlat yana bir qator suv resurslarini boshqarish bilan bog'liq boshqa asoslangan siyosiy funksiyalarni ham amalga oshirishi lozim. Suv resurslarini boshqarish bir necha ierarxik darajalarda amalga oshiriladi va bu darajalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- milliy daraja;
- viloyat, havzaviy yoki subhavzaviy daraja;
- tuman tizimi darajasi;
- suv iste'molchilari, suv iste'molchilari uyushmalari va suvdan foydalanuvchilar darajalari.

Suv resurslarini boshqarishdagi birinchi tamoyil ma'muriy-hududiy deb nomlanadi va u barcha mamlakatlarda ma'lum darajada mavjud. Mazkur tamoyilning asosiy kamchiligi havzalar chegaralarining ma'muriy chegaralarga mos kelmasligi bilan bog'liq. Mazkur tamoyil asosida havza darajasida suv resurslarini boshqarish hamda aniq rejalashtirish imkoniyatlari yo'q. Bu esa o'z navbatida suv resurslari taqsimoti notekis amalga oshirilishi va suv resurslari samarali boshqarilmasligiga, jumladan tashkiliy suv isroflarining oshib ketishiga olib keladi. Suv resurslarini boshqarishdagi ikkinchi tamoyil gidrografik-havzaviy tamoyil deb nomlanadi. Mazkur tamoyil bo'yicha suv resurslarini boshqarish bo'yicha qarorlar havza hamda tizimlar bo'yicha qabul qilinadi va amalga oshiriladi. Bu jarayonda viloyatlar va tumanlardagi suv iste'molchilari o'z vakillari orqali suv resurslarini boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilishda demokratik asoslarda ishtirok etishadi. Ushbu tamoyil hozirda butun jahonda tan olinib, keng qo'llanilmoqda. 2003-yildan boshlab O'zbekistonda ham suv resurslarini boshqarish ma'muriy-hududiy tamoyildan gidrografik-havzaviy tamoyilga

o'tkazildi. Bunda davlatning asosiy rollaridan biri mamlakat darajasida suv resurslarini boshqarish bilan bog'liq masalalarning asosini belgilash va suv resurslarini barqaror boshqarish bo'yicha qulay siyosiy muhitni yaratishdan iborat bo'ladi. Davlatning suv xo'jaligini moliyalashtirishdagi roli juda muhimdir. Hech bir rivojlangan mamlakat suv resurslarini boshqarish bilan bog'liq moliyalashtirish yuki og'irligini to'laligicha suvdan foydalanuvchilar yelkasiga yuklamaydi. Bunga bir necha misollar keltirish mumkin:

- AQSH tajribasi. Suv resurslarining muhofazasi, yirik suv xo'jaligi tizimlarini boshqarish, suv resurslarining shakllanishi va ularni boshqarish hamda moliyalashtirish masalalari "distrikt"lar (bu taxminan bizning sharoitimizdagi irrigatsiya tizimlari boshqarmasiga to'g'ri keladi) darajasigacha AQSH Melioratsiya Byurosi, shtatlar xizmatlari, AQSH tabiatni muhofaza qilish agentligi hamda shtatlararo tashkilotlar vositasida davlat tomonidan amalga oshiriladi. Suv iste'molchilari suv va irrigatsion "distrikt"larga birlashadilar hamda suv xizmatlari uchun ularning hududi doirasida to'lovni amalga oshiradilar;
- Kanada tajribasi. Xuddi yuqoridagiga o'xshash tajriba. Kanada tajribasi AQSH tajribasidan fermer va boshqa suv iste'molchilarining suv xo'jaligini yangilashga yo'naltirilgan kapital qo'yimlarning 25 foizi doirasida to'lovdagi ishtiroki bilan farq qiladi;
- Gollandiya tajribasi. Suv xo'jaligini boshqarish, rivojlantirish va rekonstruksiya qilish ishlari suv ta'minoti va dehqonchilik sohasida suv iste'molchilari darajasigacha bo'lgan bo'g'inda davlat tomonidan amalga oshiriladi;
- Hindiston tajribasi. Suv xo'jaligini boshqarish, rivojlantirish va rekonstruksiya qilish ishlari fermerlar va ularning uyushmalarigacha bo'lgan bo'g'inda davlat tomonidan amalga oshiriladi. Fermerlar va ularning uyushmalari o'zlarining o'zini o'zi ta'minlovchi tizimlari doirasida sug'orishning yangi texnikalarini qo'llash va uning elektr ta'minoti ehtiyojlari uchun davlatdan sezilarli darajadagi dotatsiyalar oladilar.

Suv resurslarini boshqarishning gidrologik va siyosiy jihatlarini uyg'unlashtirishga faqat "Suv resurslarini havza darajasida integrallashgan va adaptiv

boshqarish tizimlari”ni amalga oshirish yo‘li bilan erishish mumkin. Suv resurslarini boshqarishda “qulay siyosiy muhitni yaratish” tushunchasiga quyidagilar kiradi:

- suv xo‘jaligining davlat maqsadlaridagi ustuvorligi va siyosiy qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirish;
- hukumat suv resurslarini boshqarishning turli ierarxik darajalarida mas’uliyatni belgilovchi va tarqatuvchi sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Parlament: • suv va ekologik qonunchilikni rivojlantiradi va unga amal qilinishi yuzasidan nazoratni amalga oshiradi.

Hukumat: • mamlakat darajasida barcha suv xo‘jaligi faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirish bo‘yicha vakolatli davlat organini belgilaydi va uni nazorat qiladi; • milliy suv siyosatini shakllantiradi;

• mamlakat ichida suv resurslari to‘g‘risidagi qonunchilik talablari bajarilishini ta‘minlovchi tartib, qoida va munosabatlarni belgilaydi;

• suv resurslarini boshqarish ierarxik tuzilmalarini boshqarish prinsipini (ma‘muriy yoki gidrografik) tanlashni ta‘minlaydi;

• ierarxiyaning boshqa darajalarida boshqarish masalalari uchun mas‘ul bo‘lgan organlarni belgilaydi va tasdiqlaydi;

• suv resurslari ma‘lumotlar bazasini tashkil etadi va unga boshqa manfaatdor organlarning bog‘lanishini ta‘minlaydi;

• boshqaruvchi va xizmat ko‘rsatuvchi vazifalarini ajratadi, xususiy sektorning suv resurslari boshqaruvi jarayonida, ayniqsa uning ierarxiyasi quyi bo‘g‘inlarida ishtirokini qo‘llab-quvvatlaydi va tartibga soladi;

• transchegaraviy suvlarda hamkorlikni ta‘minlaydi;

• suv xo‘jaligi tizimining barqaror faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlash maqsadida uni davlat manbalaridan moliyalashtirish tizimini ta‘minlaydi;

• suv resurslarini boshqarishda zaruriy tashkiliy tuzilmalarni yaratishni qo‘llab-quvvatlaydi;

• milliy suv siyosatiga mos ravishda suv xo‘jaligiga investitsiyalarni ta‘minlaydi.

O‘zbekiston respublikasi mustaqillika erishganidan so‘ng barcha jabhalarda bo‘lgani kabi suv va suvdan foydalanish tizimida han turli hildagi yangilanishlar olib borilmoqda. Davrlar o‘zgaraveradi, unga mos ravishda taraqqiyot o‘zanlari ham. Biroq insoniyat oldidagi asosiy missiya bo‘lgan izlash-topish –qo‘llash amaliyoti hech qachon eskirmaydi. Insonlar savollar ichida yashaydi, biriga javob topilishi bilan keyingisi ko‘ndalang turadi. Albatta, yechimlar o‘z-o‘zidan kelinmaydi, buning uchun izlaniladi, kitoblar varaqlaniladi, ma’lumotlar to‘planilib tahlil qilinadi. Bu esa butun bashariyat ilm fanga muhtojligini anglatadi. Chunki, savollardan iborat olamda yashab bo‘lmaydi, qayerdadir ularga yechim topilishi shart. Hozirga qadar olimlar nafaqat yer sayyorasi, balki koinotdagi o‘nlab jumboqlarga yechim topdi, sirli hodisalarning sabab va oqibatlarini tahlil qildi, tushuntirdi. Ammo mo‘jizalardan iborat biz yashayotgan hayotda bilmaganlarimiz bilganlarimizdan ko‘p.

## ADABIYOTLAR

1. A Handbook for Integrated Water Resources Management in Basins. THE GWP AND THE INBO. Printed by Elanders, Sweden, 2009. ISBN: 978-91-85321-72-8
2. Ahmed Tayia & Kaveh Madani. Transboundary water conflict resolution mechanisms. Available at <http://www.globalpolicy.org/security/natres/water/2001/1001fpol.htm>
3. Babbitt, Eileen, Diana Chigas, and Robert Wilkinson 2013: Theories and Indicators of Change Briefing Paper: Concepts and primers for conflict management and mitigation.
4. Barreteau, O. (2003). The joint use of role-playing games and models regarding negotiation processes: characterization of associations. Journal of Artificial Societies and Social Simulation, 6 (2). Available at <http://jasss.soc.surrey.ac.uk/6/2/3.html>, accessed 13 April 2010.
5. Burt, Murray and Bilha Joy Keiru 2013: “Community water management: Experiences from the Democratic Republic of the Congo, Afghanistan, and Liberia.”

Washington, DC: The Environmental Law Institute (ELI), United Nations Environment Programme (UNEP).

6. Butts, Kent Hughes 1997:“The Strategic Importance of Water,” in *Parameters*, Spring 1997, pp. 65–83.

7. Castro, J. E. (2007). Water governance in the twentieth-first century. *Ambiente e Sociedade*, 10 (2), 97–118.

8. Chellaney, Brahma 2013:“Water, Peace, and War: Confronting the Global Water Crisis.” Rowman & Littlefield.

9. Dewulf, A., Craps, M., Bouwen, R., Taillieu, T. and PahlWostl, C. (2005). Integrated management of natural resources: dealing with ambiguous issues, multiple actors and diverging frames. *Water, Science and Technology*, 52, 115–24.